

XORIJIY TILLARNI O'RGANISHNING IJOBIY JIHATLARI HAMDA O'RGANISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI, MASOFAVIY TA'LIM VA ELEKTRON TA'LIMNING AHAMIYATI.

Yuldasheva Madina Rayimovna
Samarqand viloyati Jomboy tumani
35-maktab ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni hozirgi zamondagi o'rni, uni o'rganishning ijobiy jihatlari hamda o'rganishda axborot texnologiyalaridan foydalanish va masofaviy ta'lim, elektron ta'limning ahamiyati.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, elektron ta'lim, TV-texnologiya, metodlar, baholash mezonlari, ta'lim strategiyasi, keys texnologiya.

Masofaviy o'qitish – o'zaro ma'lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o'quv jarayonlari komponentlari – maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o'qitish usullariga asoslangan talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat. Masofaviy o'qitish tizimi – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega. [2]

Masofaviy o'qitishning pedagogic texnologiyalari – tanlangan o'qitish konsepsiyasiga asoslangan masofaviy ta'limning o'quv-tarbiyaviy jarayonini ta'minlovchi o'qitish metodi va uslublar majmuasi. Keys-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, masofaviy ta'limda matnli, audio visual va multimediali (keys) o'quv uslubiy materiallar majmuasi qo'llanishga asoslanadi. Ta'lim tizimida Masofadan o'qitish uslubi shakllari qo'llanilmoqda. Masofadan o'qitish uslubi – bu sirtqi o'qitishning yangishaklidir. Masofadan o'qitish bu mustaqil o'qitishdir. Mustaqil o'qitish insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masofadan o'qitishning yana bir afzalligi shundaki, unda o'quvchi o'ziga qulay vaqtida va hattoki ishdan ajralmagan holda o'qitishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan. Ko'pgina yirik korxonalar mutaxassislari malakasini oshirish yoki o'zgartirish uchun shu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab dollarlarni tejamoqdalar [1].

Masofadan o'qitishning yana bir afzallik tomoni unda o'qitish muddatini o'quvchi o'zi belgilaydi, ya'ni talaba ixtiyoriy paytda o'qitishni boshlaydi, materiallarni o'qituvchi nazoratida o'zlashtiradi. O'quvchi berilgan programmani qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qitishni tugatadi va guvohnoma oladi. Dasturni o'zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o'qitishni davom ettirishga imkoniyat beriladi [2].

Masofadan o'qitishda odatda ishlayotganlar onalar, o'qiyotganlar biror mutaxassislikni egallash yoki malakasini oshirish maqsadida o'qiydi. Bu uslub nogironlar uchun juda qulaydir. Masofadan o'qitishda hattoki maxbuslar ham o'qitish imkoniga ega. Masofadan o'qitish uchun talabalar uchun auditoriyalar, yotoqxonalar zarur emas. Masofadan o'qitishda moliyaviy harajatlar asosan o'quv uslubiy materiallar tayyorlash uchun, maxsus auditoriyalar uchun sarflanadi. Bu xarajatlarning asosiy qismi bu jarayonni tashkil etish bosqichida sarflanadi. Keyinchalik moliyaviy harajatlar kamayadi. Shuning uchun talabalar sonini oshishi bilan o'qitish narxi ham pasayadi. Masofadan o'qitishda asosiy e'tiborni o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlashga qaratish darkor. Chunki o'quv uslubiy materiallarning sifati masofadan o'qitish sifatining eng asosiy omillaridan biridir [2].

TV-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, u talabalarga o'quv-metodik ma'lumotlarni televidenie vositasi yordamida yetkazishga xizmat qiladi va tashqi aloqali ixtiyoriy interaktiv usullardan biri bilan o'rnatishga asoslanadi [1].

Hozirgi davrda ta'limning elektron shakli jadal rivojlanib borayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Bu holat elektron ta'lim tizimi va ko'plab boshqa ishlab chiqarish vositalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Elektron ta'lim tizimi foydalanuvchiga o'quv materiallari va ulardan olingan bilimlarni test topshiriqlaridan foydalanib, tekshirish imkoniyatini taqdim etadi. Zamonaviy talablarga muvofiq, o'quv jarayoni murakkablashib borayotgan bir vaqtda, ta'limda o'quv vositalaridan foydalanish o'zlashtirishni osonlashtirib, qiziqarlilik jihatini oshirmoqda [3].

Elektron ta'lim texnologiyasining rivoji elektron o'qitish tizimida ta'lim strategiyasining tuzilishi va har bir o'quvchi uchun o'quv materiallarini yakka tartibda taqdim etish kabi imkoniyatlarni bermoqda. Shunga muvofiq ishlab chiqarishga sarf-xarajatlar, doimiy talablarning o'sishi va elektron ta'lim tizimini amalga oshirishda zaruriy baholash va boshqarish sifatleri shakllandi. Hozirgi avtomatlashtirilgan ta'lim tizimi sifatini baholash uslublari o'qitish jarayoni natijalari nuqtai nazaridan, o'qitish tizimlarini baholashga, shuningdek, ushbu uslublar umumiy bo'lib, paydo bo'lgan va elektron ta'lim tizimi hayot siklining turli bosqichlari sifatini boshqarishga yetarli darajada imkon bermaydi [3].

Shu sababli ham elektron ta'lim tizimi sifatini baholash mezonlari va usullari o'qitish jarayoni

sifatini boshqarishni amalga oshirishga imkon beruvchi, joriy etish va foydalanish bosqichlarini ishlab chiqish zarur. O'qitishning barcha xususiyatlari mujassamlangan ishlanmaning uslubi va o'rganilayotgan fan bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini baholash darajalarga ajratish tizimining ishlashi hamda o'leov xususiyatlarini aniqlashtirish zarurati yuzaga keladi [3].

Bugungi kunda har bir inson uchun xorijiy tillarni bilish juda muhimdir. Dunyo tobora globallashib borayotgani va ikki tili bilish, shunchaki qiziqish emas, balki zamon talabi bo'lib bormoqda. Chet tillarni o'rganish, boshqalar bilan qanday qilib chinakam muloqot qilish va ular bilan bog'lanishni o'rganishga qaratilgan hayotiy ko'nikma. Chet tillarini nima uchun o'rganishimiz kerak? Men hozir chet tillarini nega o'rganish kerakligi sabablarini haqida yozib chiqaman.

1. Chet tillarni o'rganish miyangizni o'stiradi. Tadqiqotlar, siz necha yoshda bo'lishingizdan qat'iy nazar, boshqa tilni o'rganishning kognitiv afzalliklarini namoyish etdi. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ikki tilli odamlarning miyasi kattaroq, xotirasi yaxshi, ijodiy, muammolarni hal qiladigan va boshqalar. Ushbu afzalliklar nafaqat ko'proq tillarni o'rganishni, balki hamma narsani o'rganishni osonlashtiradi. Vazifalarni tezda almashtirish qobiliyati, bugungi band bo'lgan ko'p vazifali dunyoda ayniqsa muhimdir. Ikki tilli vazifalar bir tilli hamkasblariga qaraganda ancha tezroq almashinishi va bir vaqtning o'zida ko'plab boshqa vazifalarni bajarishi mumkin.

2. Chet tilini o'rganganingizda sayohat arzonlashadi va osonlashadi. Albatta ko'p insonlar sayohat qilishni hush ko'rishadi. Chet davlatga borganingizda til bilish sizga juda katta foyda beradi. Oddiygina ovqatlanishga borganida o'zingiz istagan taomni bemalol tushuntira olasiz. Yo'l so'rashni ham o'zingiz atrofda mahalliy insonlardan so'rab, qiyinchiliklarsiz eplay olasiz.

3. Chet tilni o'rganish ish topish uchun dunyo ochadi. Hech kimga sir emaski, chet tilini o'rganish ish bilan ta'minlash istiqbollari yaxshilashi mumkin. Har qachongidan ham ko'proq kompaniyalar dunyoning bir necha, ko'pincha o'nlab mamlakatlarida ish olib bormoqdalar, ammo ular hech bo'lmaganda bitta chet tilini tushunadigan odamlarni ishga yollamasdan buni qila olmaydilar. Hatto kichik mahalliy kompaniyalarda ham ikkinchi tilda gaplashish qobiliyati sizni boshqa isholuvchilardan ajratib qo'yishi ehtimoli katta.

4. Chet tilini o'rganayotganda yangi do'stlar orttirish imkonini ochadi. Yangi va qiziqarli odamlar bilan tanishish va umrbod do'stlikni rivojlantirish, albatta, intilishga arziydigan maqsadlardir va boshqa tilni o'rganish bu jarayonni tezlashtirishning ishonchli usuli hisoblanadi. Til bizning his-tuyg'ularimizni, istaklarimizni ifoda etishga va atrofimizdagi boshqa odamlar bilan bog'lanishda yordam beradi va mazmunli munosabatlarni shakllantiradi.

5. Chet tilni o'rganish sizni ko'proq ochiq fikrlashga undaydi. Chet tilni o'rganish va mutlaqo yangi madaniyat va dunyoqarashga singib ketish – ochiq fikrlaydigan, tushunadigan, bag'rikeng shaxsga aylanishning eng ishonchli usuli va bu mutlaqo bebahodir. Dunyoni boshqa nuqtai nazardan ko'rish va siz va boshqalar qayerdan kelganingizni tushunish hayoliy, ko'zni ochadigan tajriba.

6. Chet tillarni o'rganish o'z tili va madaniyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Chet tilni o'rganish aslida sizga teskari psixologiyani jalb qilishi va o'z ona tilingiz va madaniyatingizni yaxshiroq tushunishingizga imkon beradi. Bu chet tilini o'rganishning eng kutilmagan afzalliklaridan biridir. Siz nafaqat madaniy urf-odatlar, balki birinchi tilingizning grammatikasi, so'z boyligi va talaffuz uslublari to'g'risida ham ancha xabardor bo'lasiz.

Chet tillarini o'rganishning afzalliklari sizning hayotingizning deyarli barcha jabhalarida muvaffaqiyat qozonish uchun sizni moslashtirish qobiliyatiga ega. Chet tilni o'rganish juda muhimdir va chet tilini o'rganish uchun son-sanoqsiz bunday sabablar mavjud. Chet tilni o'rganish til to'siqlarni yengishga yordam beradi va insonlarni o'zaro tushunish chuqurroq darajasida bog'laydi [4].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://hozir.org/1-masofaviy-talim-tushunchasi-masofaviy-oqitish-usullari-masof.html>
2. <https://hozir.org/elektron-talim-va-uning-afzalliklari.html>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-organish-nega-muhim>
4. <https://goaravetisyan.ru/uz/ispolzovanie-innovacionnyh-tehnologii-na-urokah-angliiskogo-yazyka/>
5. KUSHBAKOVA, M., Zarina, R. U. Z. I. M. U. R. O. D. O. V. A., & Shahram, A. S. L. O. N. O. V. (2020). Innovative Methods and Ways to Teach and Learn Foreign Language. ECLSS Online 2020a, 146.
6. Rasulov, S., Akhmedova, G., Rustamova, K., Turamkulov, S., & Nurullayeva, N. (2020). Grape Shiny For Prevention And Nutritional Support Of Micronutrient Deficiency In Mothers And Children. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(07), 2020.
7. Матьякубова, Ф. Э., Рустамова, Х. Х., & Муродова, У. Р. (2020). ПАТОГЕНЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ТЕРАПИИ ХРОНИЧЕСКОГО ВИРУСНОГО ГЕПАТИТА В. Достижения науки и образования, (17 (71)), 86-91.
8. Aslonov, S., & Ruzimurodova, Z. (2020). INGLIZ TILINI O 'QITISHNING INNOVATSION

USULLARI. Студенческий вестник, (12-5), 72-74.

9. Халимбетов, Ю. М., Ибрагимов, Э. Ф., Арслонова, Р. Р., Рустамова, Х. Х., & Наимова, З. С. (2020). Формирование молодежи в Узбекистане как научно управляемый процесс. Наука и образование сегодня, (2 (49)), 57-59.
10. Ахмеджанова, Н., & Аслонов, Ш. (2020). Семантические типы предикатов и фазовая членимость глагольного действия. Интернаука, (12-1), 27-29.

MASOFAVIY TA'LIM TIZIMI-O'QITISHNING ZAMONAVIY USULI

Rabbimov Oybek Anvar o'g'li
SamDCHTI, o'qituvchi
Islomova Dilnoza Ayubovna
TPPI, katta o'qituvchi, Tojikiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta'lim tizimi va uning pedagoglar uchun afzallik jihatlari haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, moslashuvchanlik, parallellik, keng qamrovlilik, iqtisodiy tejankorlik, ijtimoiy tenghuquqlilik, internatsionallilik.

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va juda tez o'zgarimoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo'lmog'da. Har bir kunimiz kuchli informatsiya oqimi ostida kechmoqda. Informatsiya oqimi bizni uyda, ishxona va ta'tilda ta'qib etadi. Inson informatsiya ta'siridan xoli normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rganish informatsiyalarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan informatsiyalarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi. Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limotni takomillashtirishda yangi informatsiya texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi yangi tahrirdagi qonuni zimmamizga shu ma'suliyatni yuklaydi. Va'holanki ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimida masofadan o'qitish uslubi shakllari qo'llanilmoqda. Masofadan o'qitish uslubi bu sirtqi o'qitishning yangi shaklidir. Masofadan o'qitish bu mustaqil o'qitishdir. Mustaqil o'qitish insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim kompleksidir. Demak masofaviy o'qitish masofaviy ta'lim kompleksidagi jarayon ekan.

Masofaviy o'qitishning va masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik tizimi, zarurligi va maqsadi mavjud. Masofaviy ta'lim an'anaviy ta'lim turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi.

Moslashuvchanlik – Ta'lim oluvchiga o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta'lim olish imkoniyati mavjudligi.

Modullilik – Bir biriga bog'liq bo'lmagan mustaqil o'quv kurslari to'plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o'quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi.

Parallellik – O'quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi.

Keng qamrovlilik – Ko'p sonly o'quvchilarning bir vaqtning o'zida katta o'quv (elektron kutubxona, ma'lumotlar va bilimlar bazasi va boshqalar) zahiralariга murojaat qila olishi. Bu ko'p sonly o'quvchilarning kommunikatsiya vositalari yordamida o'zaro va o'qituvchi bilan muloqotda bo'lish imkoniyati.

Iqtisodiy tejankorlik – O'quv maydonlari, texnika vositalari, transport vositalari va o'quv materiallaridan samarali foydalanish, o'quv materiallarini bir joyga yig'ish, ularni tartiblangan ko'rinishga keltirish va bu ma'lumotlarga ko'p sonly murojaatni tashkil qilib bera olish mutaxassislarni tayyorlash uchun ketadigan xarajatlarni kamaytiradi.

Ijtimoiy teng huquqlilik – Ta'lim oluvchining yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli ta'lim olish imkoniyati.

Internatsionallilik – Ta'lim sohasida erishilgan jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati.

O'qituvchining yangi roli – Masofaviy o'qitish o'qituvchining o'qitish jarayonidagi rolini yanada